

Jahon tibbiy polimerlar bozori 2034-yilgacha \$51,3 milliardgacha o'sishi mumkin

// 01 July 2025 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/jahon-tibbiy-polimerlar-bozori-2034-yilgacha-51-3-milliardga>



Jahon tibbiy polimerlar bozori 2024-yilda \$23,52 milliardni tashkil etgan. 2034-yilga kelib, bozor hajmi o'rtacha 8% yillik o'sish sur'ati bilan taxminan \$51,3 milliardga yetishi kutilmoqda. Joriy yilda esa bu ko'rsatkich \$27,5 milliardgacha o'sishi mumkin. Bu haqda Pcedence Research tahliliy agentligi o'zining iyun oyida o'tkazgan tadqiqotlaridan kelib chiqib ma'lum qildi.

2024-yilda jahon bozorida 44 % ulush bilan Shimoliy Amerika eng yirik segment bo'ldi, bu esa bozordagi eng yuqori daromadni ta'minladi.

Farmatsevtika mahsulotlarini qadoqlash uchun tibbiy polimerlarga bo'lgan talabning o'sishi, shuningdek, Meksika hamda Kanadada farmatsevtika sohasining jadal rivojlanishi bozorning yanada o'sishiga turtki bo'lishi mumkin.

2024-yilda AQSh bozori qiymat jihatidan \$7,2 milliardga baholandi. 2034-yilga kelib, u ikki baravardan ortiq — \$16 milliardgacha o'sishi mumkin.

O'tgan yilda Yevropaning bozordagi ulushi 28%ni tashkil etdi. Undan keyingi o'rinlarda Osiyo-tinch okean mintaqasi (21%), Lotin Amerikasi (4%) va Yaqin Sharq hamda Afrika mamlakatlari (3%) qayd etilgan.

"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati